

INFORMATIKA FANI ISTIQBOLLARI

Mahmudova Nazira Abdumalikovna

Namangan viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi Kosonsoy tuman 1-son kasb-hunar maktabi Informatika fani katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi davrda informatika fanini istiqbollari haqida fikr va mulohazalar boradi.*

Kalit so'zlar: *Demokratik, ta'lim, ilmiy axborotlar, informatika, axborot, maktab, dars, o'quvchi.*

Respublikamiz rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishligi uchun davlat tomonidan ta'lim tizimiga alohida ahamiyat berilishi bejiz emas. Buning dalili sifatida 2020-yil 19 mayda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni Prezident tomonidan tasdiqlanishi alohida ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlar tajribasidan shu ma'lumki, bozor iqtisodi sharoitida axborot tizimining qanchalik suratda takomillashuvi davlat tizimining ravnaq darajasini belgilaydi. Shu ma'noda, axborotlarning ishonchliligi, ularning o'z vaqtida tayyorlanishi ko'p jihatdan kompyuter, dasturchilarni mukammal darajada bo'lishligiga bog'liq, chunki bu uch vosita bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda faoliyat ko'rsatadi.

Informatika - ilmiy axborotlarning struktura va umumiy xossalarini, shuningdek ularni yaratish, uzgartirish, uzatish va ulardan inson faoliyatining turli soxalarida foydalanish konuniyatlarini urganadigan fan. Nazariy(ilmiy axborotlar predmeti va metodlari, mazmuni, strukturasi va xossalari), ilmiy kommunikatsiya(rasmiy va norasmiy protsesslar, ilmiy axborot xizmati), informatsion izlanishlar, ilmiy axborotlarni tarkatish va ulardan foydalanish, ilmiy axborot xizmatini tashkil etish va uning tarixi bulimlari bor.

Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyotining asosi bo'lmish hisoblash texnikasidan ishlab-chiqarishning turli iqtisodiy vazifalarini hal etish va har xil murakkab masalalarni echishda keng foydalanilmoqda, chunki juda ko'p faktorlarni hisobga olish, ulkan hajmdagi axborotlar bilan ishlash zaruriyati- elektron mashinalarsiz hal etishga imkon bermaydi. Hisoblash texnikasi yordamida mashinasozlik, transport ishlab-chiqarishini rejalashtirish, loyihalash, hisoblash hamda tahlil ishlari keng hal qilinmoqda. SHuning uchun ham hisoblash texnikasi keng joriy etilishi munosobati bilan bu texnikalardan mustaqil foydalana oladigan mutaxassislariga talab oshib bormoqda.

Bugungi kunda har bir kishi o'z farzandining kelajagi, ayniqsa uning olayotgan ta'limi haqida chuqur qayg'uradi. O'z farzandlarini maktabga yuborish orqali ular ta'lim olish jarayonida zarur bilimlarni olishi, har tomonlama rivojlanishi va ota-onalar maktab va o'qituvchilarni o'z farzandlarining tarbiyasi uchun mas'ul ekanligi uning kelajagini belgilab beradi. Shu munosabat bilan o'quv jarayonining hozirgi pozitsiyasi

va an'alarini qayta ko'rib chiqish, umumiy ta'limning yangi ta'lim standartlarini takomillashtirish zaruriyati tug'iladi.

Hozirgi zamonda dunyo bo'ylab tadqiqotchilar va o'qituvchilarning nisbatan yosh va tez rivojlanayotgan informatika faniga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda informatika fundamental fan sifatida paydo bo'ldi. Uni o'rganish obyekti - bu ma'lumot, uning tuzilishi va uni qayta ishlash usullari. So'nggi yillarda "Informatika va AT" maktab kursi o'z rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Ayniqsa, kompyuter savodxonligi haqidagi dunyoqarash o'zgardi. Maktabda informatika fanini joriy etish boshida kompyuter savodxonligi dasturlash qobiliyati sifatida tushunilgan. Endi hamma maktabdagi informatika dasturlash kursi bo'lmasligi kerakligini anglab yetdi. Hozirgi vaqtda maktab informatika o'qituvchisi eng qiyin va qiziqarli kasblardan biri hisoblanadi. Informatika fani o'qituvchisi kompyuter texnologiyalari rivoji, yangi dasturlarning paydo bo'lishi, ular bilan ishlash texnikasi va usullarining o'zgarishini diqqat bilan kuzatishga majbur. Mutaxassis muttasil quyidagi savollar bilan yuzma-yuz keladi: «Nimani va qanday o'qitish kerak? Qanday qilib bolani tez rivojlanayotgan axborot texnologiyalari dunyosida yo'nalish olishni o'rgatish kerak? » Buning uchun o'qituvchi o'zini doimiy ravishda takomillashtirib borishi kerak, shaxsiy maqsadga muvofiqlik va doimiy ravishda axborot texnologiyalari dunyosida va pedagogik sohada sodir bo'layotgan voqealarni bilishga intilish kerak.

Maktabda informatika fanini o'rganish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Hozirgi pandemiya sharoitida amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolalar informatika darslarida olgan bilimlarini qo'llagan holda ularni boshqa fanlarga tayyorgarlik ko'rishda foydalanadilar, masalan, o'qituvchilar bilan masofaviy muloqotda, aytaylik, ular biror darsdan ta'lim olish jarayonida albatta bevosta kompyuterdan, information texnologiyalardan foydalanadi. Shuning uchun informatika o'qituvchisi, hech kimga o'xshamagan holda, o'quvchilarni o'z darslari, mavzusi bilan qiziqtirishi kerak.

Informatika darslari o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Kompyuter darsda nafaqat o'quvchining ishini kuzatibgina qolmay, balki ularning bilim, ko'nikma va malakalarining foydali va kamchiliklarini kashf etishga yordam beradi. Informatika darslarida faqat o'quvchilar nazariy bilimini shakllantiribgina qolmay, balki fanning texnik jihatlaridan ham bilimga ega bo'lishlarini ta'minlash lozim. Har bir o'quvchining temperamenti har bo'lishini hisobga olib vazifalarning tasniflanishi, berilgan topshiriqlarning o'quvchi uchun qiziqarli bo'lishini ta'minlash bo'yicha mutaxassisdan kuzatuvchanlik talab qilinadi. Berilgan vazifa o'quvchilarni ijobiy fikrlashga moslashishga yordam beradi. Agar ular kompyuter bilan ishlashga bo'lgan qiziqishini rivojlantirsalar, ular ko'proq rivojlanishi mumkin. Juda oddiy qilib aytadigan bo'lsak kompyuterdan foydalanishni yaxshi o'rgangan, informatika bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan o'quvchilar maktabda boshqa fanlarni o'qishi, ularni o'zlashtirishi birmuncha oson bo'ladi.

Umumta'lim maktabida informatika o'qitishning muammolari va istiqbollari haqida gapirishdan oldin, asosiy muammo muhokama qilinishi kerak, bu bolalarning informatika fanining akademik mavzu sifatida ahamiyatini anglashi, shuningdek, uni qo'llash sohasining aniq tavsifi. Internet, elektron kutubxonalar va kitoblar, raqamli audio-video-foto vositalar, mobil telefonlar, planshetlar, cho'ntak kompyuterlari va kommunikatorlar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar haqidagi tushunchalarni zamonaviy maktab o'quvchisi bilmog'i, taxminan 10-20 yil oldingi maktab o'quvchisi bilan hozirgi zamon o'quvchisining tubdan farq qilishi, fan sifatida rivojlangan Informatikaning ilm-fan sohasida juda katta yutuqlarga erishishda ko'makchi bo'lganligini va bo'layotganligi to'g'risida tasavvurni shakllantirish kerak bo'ladi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov B.A Informatika faniga oid qo'lanma T-2019
2. S. Rahmonqulov "IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash", T.: "Sharq", 1998.
3. A. Axmedov N. Taylaqov "Informatika", Toshkent "O'zbekiston", 2001.
4. A. Abduqodirov va boshqalar "Informatika", T.: "Me'ros". 2002.
5. A. Sattorov «Informatika va axborot texnologiyalari» Toshkent «O'qituvchi», 2002